



THE RATIONAL CHOICE MODEL OF VOTER BEHAVIOR

Vahob Kuchkarov

Professor of the department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

E-mail: abduvahov.uz@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

Bekzod Boymuratovich Rasulov

Associate Professor at Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering

Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.u

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Rational choice, political behavior, voter, utility function, voting, political market, social costs.

Received: 16.05.26

Accepted: 17.05.26

Published: 18.05.26

Abstract: This article examines the behavior of voters as subjects of political processes through the lens of rational choice theory. The objective of the study is to identify the significance of personal interests, costs, and expected benefits in the decision-making process of voters. The research analyzes the "utility function" of the voter and provides a theoretical basis for the reasons why, in certain cases, citizens abstain from participating in elections (abstentionism).

SAYLOVCHILAR XULQ-ATVORINING RATSIONAL MODELI

Vahob Qo'chqorov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti falsafa kafedrasida professori

Elektron pochta: abduvahov.uz@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

Bekzod Boymuratovich Rasulov

Samarqand davlat arxitektura-qurilish

universiteti dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ratsional tanlov, siyosiy

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy jarayonlarning subyektlari bo'lmish

xulq-atvor, saylovchi, foydalilik funksiyasi, ovoz berish, siyosiy bozor, ijtimoiy xarajatlar.

saylovchilarning xulq-atvori ratsional tanlov nazariyasi prizmasi orqali tadqiq etiladi. Maqolaning maqsadi saylovchilarning qaror qabul qilish jarayonida shaxsiy manfaatlar, xarajatlar va kutilayotgan foyda omillarining o'rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda saylovchining "foydalilik funksiyasi" tahlil qilinib, nima uchun ayrim hollarda fuqarolar saylovda ishtirok etishdan voz kechishi (abstensionizm) sabablari nazariy jihatdan asoslanadi.

РАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ПОВЕДЕНИЯ ИЗБИРАТЕЛЕЙ

Вахоб Кучкаров

Профессор кафедры философии

Ташкентский государственный экономический университет,

E-mail: abduvahov.uz@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

Бекзод Боймуратович Расулов

Доцент Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета доктор философии (PhD) по политическим наукам

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Рациональный выбор, политическое поведение, избиратель, функция полезности, голосование, политический рынок, социальные издержки.

Аннотация: В данной статье поведение избирателей как субъектов политических процессов исследуется через призму теории рационального выбора. Цель статьи заключается в определении роли факторов личных интересов, издержек и ожидаемой выгоды в процессе принятия решений избирателями. В исследовании анализируется «функция полезности» избирателя и теоретически обосновываются причины, по которым в некоторых случаях граждане отказываются от участия в выборах (абстенционизм).

Kirish. Zamonaviy siyosatshunoslikning eng muhim va bahsli yo'nalishlaridan biri – bu shaxsning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va uning qaror qabul qilish mexanizmlarini o'rganishdir. Demokratik institutlar rivojlanib borayotgan bugungi kunda saylovlar shunchaki davlat hokimiyatini shakllantirish vositasi emas, balki fuqarolarning o'z xohish-irodasini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayonga aylandi. Biroq, "Nima uchun millionlab insonlar saylov uchastkalariga boradi va aynan ma'lum bir nomzod yoki partiyani tanlaydi?"

degan savol hamon fundamental tadqiqotlar obyekti bo'lib qolmoqda. Ushbu savolga javob izlashda ratsional tanlov nazariyasi alohida o'rin tutadi.

Ratsional tanlov modeli siyosiy fanga iqtisodiy metodologiyani olib kirdi va saylovchini "siyosiy bozor"dagi oqilona iste'molchi sifatida talqin qila boshladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, saylovchi emotsional impuls yoki an'anaviy sadoqat (masalan, diniy yoki etnik mansublik) ta'sirida emas, balki aniq hisob-kitoblar — xarajatlar va foyda nisbatini tahlil qilish asosida harakat qiladi. Ya'ni, har bir saylovchi o'z ovozini "siyosiy investitsiya" deb biladi va undan maksimal darajada ijtimoiy-iqtisodiy dividend olishni ko'zlaydi.

Ushbu nazariyaning markaziy muammosi shundaki, bir kishining ovozi umumiy natijaga deyarli ta'sir ko'rsatmaydigan darajada kichik bo'lishiga qaramay, nima uchun insonlar vaqt va kuch sarflab saylovga chiqishadi? Bu holat ilmiy adabiyotlarda "ovoz berish paradoksi" deb ataladi. Agar inson sof ratsional (iqtisodiy ma'noda) bo'lsa, u saylovga sarflaydigan vaqtini o'zining shaxsiy ishlari yoki dam olishiga sarflashi foydaliroqdek ko'rinadi. Biroq, ratsional modelning zamonaviy talqinlari ushbu paradoksni nafaqat moddiy manfaatlar, balki "fuqarolik burchi", "ijtimoiy obro'" va "psixologik qoniqish" kabi nomoddiy o'zgaruvchilar orqali tushuntirib beradi.

Mazkur maqolada saylovchilar xulq-atvorining ratsional modeli klassik va zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda saylovchining qaror qabul qilishidagi strategik bosqichlar, siyosiy partiyalarning saylovchilar "bozori"dagi raqobat usullari va ushbu modelning bugungi kun siyosiy realligiga qanchalik mos kelishi atroflicha ko'rib chiqiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va "Big Data" asrida ratsionallik tushunchasining transformatsiyasi masalalariga ham to'xtalib o'tiladi.

O'rganish darajasi.

Saylovchilar xulq-atvorining ratsional modeli siyosatshunoslik va iqtisodiyot fanlari chorrahasida shakllangan bo'lib, uning fundamental asoslari XX asrning o'rtalariga borib taqaladi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

Ratsional tanlov nazariyasining siyosiy jarayonlarga tatbiq etilishi Entoni Daunsning 1957-yilda nashr etilgan "An Economic Theory of Democracy" (Demokratiyaning iqtisodiy nazariyasi) asari bilan boshlangan. Dauns birinchi bo'lib saylovchini siyosiy bozordagi "iste'molchi", siyosiy partiyalarni esa "tadbirkorlar" sifatida tasvirladi. Uning fikricha, saylovchi turli partiyalar taklif qilayotgan dasturlarni o'zining shaxsiy manfaatlariga qanchalik mos kelishi bo'yicha baholaydi va "foydalilik farqi" eng yuqori bo'lgan variantga ovoz beradi [Downs, A. 1957, 1].

1960-1970-yillarda nazariya yanada chuqurlashtirildi. Manser Olson o'zining "The Logic of Collective Action" (Jamoaviy harakat mantiqi, 1965) asarida nima uchun ratsional shaxslar har doim ham umumiy manfaatlar yo'lida birlashmasligini tushuntirib berdi. Bu saylovchilarning nega passivlik ko'rsatishi (abstensionizm) masalasini tushunishga yordam berdi [Olson, M. (1965)., 2].

Shuningdek, Uilyam Riker va Piter Ordeshuk 1968-yilda e'lon qilingan "A Theory of the Calculus of Voting" [3] maqolasida mashhur ovoz berish formulasini takomillashtirdilar. Ular modelga D (Civic Duty — fuqarolik burchi) o'zgaruvchisini kiritib, insonlar nafaqat moddiy manfaat, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi tufayli ham ovoz berishini isbotlashga harakat qildilar.

XXI asrga kelib, ratsional tanlov modeli Jeyms Byukenen va Gordon Tullok tomonidan ishlab chiqilgan "Ijtimoiy tanlov" nazariyasi bilan boyitildi. Ularning "The Calculus of Consent" [Rozilik hisobi, 1962, 4] asari siyosiy qarorlarning konstitutsiyaviy va institutsional chegaralarini belgilab berdi.

Zamonaviy davrda esa Gari Bekker kabi iqtisodchilar saylovchilarning xulq-atvorini "Inson kapitali" nuqtai nazaridan tahlil qildilar. Bugungi kunda Bayan Kaplan va Samuel Popkin kabi tadqiqotchilar "Ratsional irratsionallik" tushunchasini ilgari surib, saylovchilarning ma'lumot yetishmasligi sharoitida qanday qilib "past axborotli ratsionallik" asosida qaror qabul qilishini o'rganmoqdalar.

O'zbekiston siyosatshunosligida saylovchilar xulq-atvori masalalari mustaqillik yillarida tizimli o'rganila boshlandi. Bu borada siyosiy madaniyat va elektoral jarayonlarni tadqiq etgan mahalliy olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Biroq, aynan "Ratsional tanlov" modelining O'zbekiston saylov tizimi o'ziga xosliklariga tatbiq etilishi hali ham kam o'rganilgan va istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Metodologiya. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va matematik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Mavzu muhokamasi. Saylovda ishtirok etish — bu siyosiy huquq, majburiyat emas. Bugungi demokratik jamiyatda uni majburiyatga aylantirish imkoni ham yo'q. Mana shundan kelib chiqib, saylovchilarning mazkur siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga erishish ko'proq ularning siyosiy xulq-atvoridagi ishtirok etish motivi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Saylovchida dahldorlik hissi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. O'z navbatida befarqlikning ham o'ziga xos sabablari bo'ladi. Mana shu sabablarning va uning oqibatlarini tahlil qilish, tegishli tavsiya va takliflar ishlab chiqish tadqiqotimizning asosiy maqsadalaridan biri hisoblanadi.

2017-yildan beri O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi va sud tizimiga oid bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu islohotlar doirasida saylov qonunchiligiga ham sezilarli o‘zgartirishlar kiritildi, jumladan, 2023-yilda saylov tizimi qayta ko‘rib chiqildi, siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish qoidalari yangilandi va saylov komissiyalari tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritildi. Xalqaro kuzatuvchilar, ushbu islohotlarni saylov jarayonida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgan sa‘y-harakatlar sifatida e‘tirof etdi [5]. Masalan, ayollar uchun kvota 30% dan 40% gacha oshirilgani ijobiy hodisa sifatida baholandi. 2024-yilgi parlament saylovlarida ayollar nomzodlarning 45% ini tashkil etdi va O‘zbekiston parlamenti Qonunchilik palatasida 150 o‘rindan 47 tasi ayollar tomonidan egallandi [Bryan CJ, Walton GM, Rogers T, Dweck CS., 2011, 6].

Saylovchilar faolligini tushunish zamonaviy demokratiya uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki bu nafaqat tizimning legitimligini ta‘minlaydi, balki fuqarolarning jamiyat hayotiga faol ishtirokini ham aks ettiradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – siyosiy xulq-atvorning turli nazariyalarini va ularning empirik dalillarini ko‘rib chiqish, bu bilimlarni O‘zbekistonning o‘ziga xos kontekstual holatiga qo‘llash va saylovchilar ishtirokini oshirish bo‘yicha asosli hamda tizimli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Saylov jarayonlarida saylovchilar ishtiroki motivatsiyasini tushuntiruvchi bir nechta fundamental nazariyalar mavjud. Bu nazariyalar saylovda qatnashish kabi ko‘rinishi oddiy bo‘lgan xulq-atvorning murakkab sabablarini tahlil qiladi. Asosiy yondashuvlar ratsional tanlov nazariyasi va uning rivojlantirilgan versiyalari, shuningdek, psixologik va ijtimoiy omillarga asoslangan nazariyalardir.

Siyosiy xulq-atvorning klassik nazariyalaridan biri bo‘lgan ratsional tanlov nazariyasi, har bir saylovchining o‘z shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda qaror qabul qilishini taxmin qiladi. Ushbu nazariyaning asosiy modeli Downs (1957) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ovoz berish uchun kutiladigan foydani matematik tarzda ifodalaydi [7]. Saylovchi faqat ovoz berishdan kutiladigan sof foyda musbat bo‘lgan taqdirda ovoz beradi:

$R = PB - C > 0$, bu yerda R ovoz berishning sof kutilgan foydasi, P saylovchining ovozi saylov natijasiga ta‘sir qilish ehtimoli, B nomzodlarning siyosatlaridan kutiladigan foydalardagi farq va C ovoz berish bilan bog‘liq xarajatlarni ifodalaydi.

Ammo bu model amaliyotda jiddiy muammolarga duch keladi. Katta miqyosli saylovlarda yagona ovozning natijaga ta‘sir qilish ehtimoli (P) o‘ta past, deyarli nolga tengdir. Shunday qilib, tenglamaga ko‘ra, saylovchilar uchun ovoz berish “ratsional” emas, chunki PB qiymati har doim ovoz berish xarajatlaridan (C) past bo‘ladi. Bu esa yuqori darajadagi ishtirok emas, balki keng miqyosdagi abstensiyani (ovoz bermaslikni) bashorat qiladi. Ushbu nazariya tomonidan

tushuntirib bo'lmaydigan, odamlarning shaxsiy manfaatlari nuqtai nazaridan "noratsional" bo'lganiga qaramay, ovoz berishga borishi "ovoz bermaslik paradoksi" deb ataladi [7].

Bu paradoksni bartaraf etish uchun Riker va Ordeshook (1968) tomonidan Downs modeliga yangi omil qo'shildi, ya'ni D (ovoz berishning iste'mol afzalliklari). Yangilangan tenglama $R = PB - C + D > 0$ shaklida bo'lib, D omili "fuqarolik burchini bajarish" yoki "o'z fikrini ifodalash" kabi saylovning instrumental bo'lmagan foydalarini o'z ichiga oladi [7]. Bu nazariya endilikda ovoz berishni nafaqat natijaga ta'sir o'tkazish, balki jamiyatning faol a'zosi sifatida namoyon bo'lish yoki ma'lum bir nomzodga o'z xoxishini ifodalash uchun ham foydali deb hisoblaydi. Bu model saylovchilar ishtirokining yuqori darajasini tushuntira oladi, ammo tanqidchilarning fikricha, D omili har qanday xulq-atvorni voqeadan keyin tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgani uchun, modelning bashorat qilish kuchi zaiflashadi.

Dauns modelini O'zbekiston kontekstida uchta asosiy yo'nalishda modellashtirish mumkin:

1. Saylovchining ratsional qarori. Dauns bo'yicha, fuqaro faqatgina ovoz berishdan keladigan naf uning xarajatlaridan yuqori bo'lsagina saylovda qatnashadi:

$$R = (P \times B) - C + D$$

R (Reward): Ovoz berishdan olinadigan sof foyda.

P (Probability): Saylovchining ovozi natijani hal qilishiga bo'lgan ishonchi.

B (Benefit): Nomzodlar yoki partiyalar dasturlari o'rtasidagi farqdan keladigan foyda.

C (Cost): Saylovga sarflanadigan vaqt va ma'lumot to'plash xarajatlari.

D (Duty): Fuqarolik burchi hissi (O'zbekiston uchun eng muhim omil).

2024 yilgi saylov natijalari bo'yicha modelda:

O'zbekistondagi yangilangan aralash saylov tizimi (proporsional va majoritar) B omiliga ta'sir qildi. Partiyalar ro'yxati bo'yicha ovoz berish tizimi kiritilishi saylovchilarda "mening ovozim partiyaning umumiy ulushiga ta'sir qiladi" degan tuyg'uni (P) oshirishga xizmat qildi.

2. Partiyalarning strategik harakati. Median saylovchi teoremasi. Dauns modeliga ko'ra, ko'pchilik ovozni olish uchun partiyalar o'z dasturlarini ideologik markazga - "Median saylovchi" (o'rtacha qarashga ega bo'lgan fuqaro) pozitsiyasiga yaqinlashtiradi.

O'zbekiston-2024 saylov natijalari tahlili:

• Ideologik yaqinlashuv: O'zbekistondagi 5 ta siyosiy partiya (O'zLiDeP, "Milliy tiklanish", "Adolat", XDP va Ekopartiya) dasturlarida keskin farqlar kamayib, barchasi markaziy islohotlar kursi (Yangi O'zbekiston strategiyasi) atrofida jipslashdi.

• Raqobat maydoni: Partiyalar o'rtasidagi asosiy kurash ideologiyada emas, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish (energetika, ta'lim, korrupsiya) usullari ustida bordi. Bu Dauns tasvirlagan "raqobatli markazlashuv" holatiga mos keladi.

3. Ratsional xabardorlik va axborot xarajatlari

Dauns fikricha, saylovchi har bir partiya dasturini mukammal o'rganishi uchun ko'p vaqt sarflashi kerak. Agar farq sezilarli bo'lmasa, saylovchi "ratsional bexabarlik" holatiga o'tadi.

2024 yilgi saylov natijalari bo'yicha vaziyat:

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan "Saylov-2024" mobil ilovasi va raqamli platformalarning ishga tushirilishi saylovchilarning axborot olish xarajatlarini (C) sezilarli darajada kamaytirdi.

Televizion debatlarining ko'payishi partiyalar o'rtasidagi farqni (B) vizuallashtirishga va saylovchining qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishga xizmat qildi.

2024 yilgi saylovlarda Dauns modelidagi D (fuqarolik burchi) va C (xarajatlarni kamaytirish) omillari yetakchilik qildi. Saylovchilarning 70% dan yuqori ishtiroki tizimning texnik qulayligi va islohotlarga bo'lgan ijtimoiy ishonch bilan izohlanadi.

Saylovchilar motivatsiyasini tushuntirishda ijtimoiy va psixologik omillar tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv ratsional tanlov nazariyasidan farqli o'laroq, odamlarning o'zini anglash, ijtimoiy normativlar va atrof-muhit ta'siri kabi ichki va tashqi omillarga e'tibor qaratadi.

Xulosa. Saylovchilar xulq-atvorining ratsional modeli siyosiy fanga iqtisodiy mantiq va metodologik aniqlik olib kirdi. Ushbu nazariya doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, saylovchi shunchaki passiv kuzatuvchi emas, balki o'z manfaatlarini va resurslarini o'lchab ko'radigan oqilona subyektdir. Tadqiqot natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Birinchi, ratsional tanlov nazariyasi siyosiy jarayonlarni bashorat qilish imkonini beradi. Saylovchilarning nomzodlar tomonidan beriladigan va'dalarni "foyda va xarajat" prizmasi orqali baholashi, siyosiy partiyalarni ham yanada aniqroq, hayotiy va ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqishga majbur qiladi. Bu esa o'z navbatida, siyosiy bozorda raqobatning sifat jihatidan oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, "ovoz berish paradoksi" shuni tasdiqlaydiki, inson faqat moddiy manfaatlar bilan cheklanib qolmaydi. Klassik formula ($R = PB - C + D$) tarkibidagi "fuqarolik burchi" (D) va ma'naviy qoniqish omili, ratsionallik tushunchasini kengroq talqin qilish lozimligini ko'rsatadi. Ya'ni, demokratik barqarorlikni saqlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda saylovchilarning nafaqat iqtisodiy, balki qadriyatli motivatsiyasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli siyosiy texnologiyalar davrida ratsional model yangicha transformatsiyaga uchramoqda. Saylovchilarga ta'sir o'tkazishning psixologik usullari ko'paysa-da, axborotga kirish imkoniyatining kengayishi "past axborotli ratsionallik"dan "ongli tanlov" sari siljishga turtki bermoqda. Bu esa siyosiy tizimlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ratsional tanlov modeli mukammal bo'lmasa-da, u saylov jarayonlarini tushunish uchun eng kuchli tahliliy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash uchun davlat va jamiyat institutlari saylovchining ratsional ehtiyojlarini to'g'ri anglashlari va ularga adolatli siyosiy takliflar bilan javob berishlari shart. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu modelni neyrosiyosatshunoslik va xulq-atvor iqtisodiyoti yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda yanada boyitishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Downs, A. (1957). *An Economic Theory of Democracy*. New York: Harper & Row.
2. Olson, M. (1965). *The Logic of Collective Action*. Harvard University Press.
3. Riker, W. H., & Ordeshook, P. C. (1968). *A Theory of the Calculus of Voting*. *American Political Science Review*.
4. Buchanan, J. M., & Tullock, G. (1962). *The Calculus of Consent*. University of Michigan Press.
5. https://www.europarl.europa.eu/cmsdata/260879/2021_OSCE-Uzbekistan.pdf
6. Bryan CJ, Walton GM, Rogers T, Dweck CS. Motivating voter turnout by invoking the self. *Proc Natl Acad Sci U S A*. 2011 Aug 2;108(31):12653-6. doi: 10.1073/pnas.1103343108. Epub 2011 Jul 18. PMID: 21768362; PMCID: PMC3150938.
7. http://sa.uh.edu/hobby/eitm/_docs/past-lectures/2014-lectures/jeremy-gilmore/rational-theories-of-voter-turnout.pdf.